

“INGLIZ XALQ OG’ZAKI IJODIDA “TUSH” NING QAHRAMONLAR
TAQDIRIDAGI O’RNI.”

Ichki Ishlar Vazirligi Buxoro akademik litseyi
“Tillarni o’rganish” kafedrasida ingliz tili fani o’qituvchilari:
Ro’ziyeva D. Shodiyev Sh.

Annotatsiya: Ushbu maqola “Ingliz xalq og’zaki ijodida “tush” ning qahramonlar taqdiridagi o’rni” haqida ma’lumotlarga ega bo’lishingiz mumkin.

Kalit so’zlar: Tush, motive, zamonaviy dinlar, dream,

Har bir xalqning tushida ko’rilgan ma’lum bir narsa-predmet holatlarini izohlovchi turg’un ramziy ma’nolari bilan bog’liq an’anaviy tushunchalar mavjud. Ana shu tushunchalar xalq orasida og’izdan-og’izga o’tib, xalqning turmush tarzi, dunyoqarashi, yashash sharoiti, umumintellektual darajasi ko’lamida yangilanib, kengayib keladi. Yozma tarzda tartib beriluvchi ta’biriymalar ham birinchi galda ana shu an’anaga tayanadi. Ingliz xalq ertaklari boshqa xalqlarning ertaklaridan farq qiladi. Filologlar va madaniy tadqiqotlar shuni ko’rsatadiki, milliy mentalitetning xususiyatlari ertaklarda juda yaxshi namoyon bo’ladi. Shu o’rinda —tush so’zining lug’atlarda berilgan manosi to’xtaladigan bo’lsak, ingliz tilida —dream deb tarjima qilinadi.

Ommaviy nashr etilgan 160 ertakdan 19 tasida, 60 ta dostonning 16 tasida bevosita tush motivi mavjudligi aniqlandi. Ayni holat ertak va dostonlarda tush motivining kelishi xususiy hodisa bo’lmay, an’anaviy ko’rinish olganligini va maxsus tadqiq qilish yetarlicha material bera olishini namoyon etmoqda. Hayotdagi va ertak, dostonlardagi tushlar kelayotgan xabarning amalga oshuvidagi muddatlarning shartli bo’lishiga ko’ra ham bir-biriga o’xshab ketadi. Shu jumladan, kishi (hayotda), qahramon (asarda) taqdirini to’la qamrovchi tushlar. Bu xil tushlarning amalga oshishida uzoq muddatlar, ko’pincha, ko’ruvchining umri davomidagi vaqt o’tadi. Bu keng qamrovli davrdan xabar beruvchi tushlar o’ta timsoliy, umumiy tarzda namoyon bo’ladi. Tushdagi timsollar talqinining xalq hayoti, ishonch-e’tiqodlari, tarixi, taqdiri bilan chambarchas bog’liqligini ko’pgina xalqlarda bir obrazning turlicha ta’bir etilishi misolida ham kuzatamiz. Bugungi kunda ingliz xalq tush tizimida it dushman, tuhmat, yomonlik timsoli sifatida keladi. Lekin o’tmishda, jumladan, tasavvuf adabiyotida, qolaversa, bir qator Yevropa xalqlarida it do’st, hamkor sifatida anglanadi.

Ayni paytda, ma’lum bir obraz xalq hayotida kechgan e’tiqodiy o’zgarishlar natijasida o’zining tub timsoliy ma’nosini yangilashini ham kuzatish mumkin. Timsol – inson ruhiyatining tili bo’lib, u tabiat bilan ana shu tilda gaplasha boshlagan. Shu timsollar tilida miflar, ertaklar, dostonlar yuzaga kelgan. Bu ijod mahsullari o’zlari yaratilgan davrdagi inson kechinmalarining mevasi bo’lib, undagi timsollarni to’g’ri sharhlash bizni ajdodlarimizga yaqinlashtiradi, ularning ichki dunyosini yoritib beradi.

Mif, ertak, dostonlardagi tush motivi bilan bog’liq timsollar xalq tafakkurining xazinasini bo’lib, ularni o’rganish xalq tafakkuri tarixini o’rganishdir. Xalq dostonlari va ertaklaridagi tush motivining badiiy qimmatini, muayyan matndagi poetik yukini teran anglash uchun, birinchi galda, hayotdagi tush ta’birlari bilan bog’liq tushuncha, tasavvurlarni badiiy (folkloridagi tushlarni shartli ravishda badiiy tushlar, deb olmoqdamiz) tushlarga o’zaro qiyoslab o’rganish talab etiladi. Masalaning ushbu tartibda qo’yilishining ma’lum sabablari bor. Avvalo, badiiy tushlarning andozasi hayotdagi tushlardan olinadi. Qolaversa, badiiy

tushlar ham hayotdagi tushlarga uyg'un kommunakativ vazifa bajaradi va undan bashorat yoki biror bir xabar anglanadi. Ana shu anglatish va anglash jarayoni semantik jihatdan bir-biriga uyg'un keladi. Ya'ni badiiy tushlar ta'бири ham hayotiy tushlarta'biriga ko'p jihatdan mos. Bunda tush timsol sifatida qaralib, ta'bir etiladi. Yana bir o'xshashlik hayotdagi tushlar ko'p jihatdan badiiy ijodga xos shaklda namoyon bo'lishida ko'rinadi. Xususan, mifologik va folkloriy tafakkur shakli tush strukturasi va semantikasiga har jihatdan to'g'ri keladi. Ayni paytda, hayotdagi va badiiy tushlar o'rtasida semantik nuqtai nazardan farqlar ham mavjud. Folklordagi (umuman, badiiy matn tarkibidagi) tushlarning hayotdagi tushlardan nazarda tutilayotgan farqli jihatlari quyidagi o'rinlarda yaqqol ko'zga tashlanadi:

– Badiiy tush, avvalo, badiiy ijod mahsuli bo'lib, badiiy-estetik xususiyatga ega. Hayotdagi tushlarga bunday vazifa yuklanmaydi; hayotdagi tushlar tush ko'ruvchi taqdiri, hayoti bilan bog'liq kommunikativ vazifa bajarsa, badiiy tushga qahramon hayoti, taqdiri bilan bog'liq ana shunday xususiyat yukalansa-da, asar tarkibida o'ziga xos badiiy vazifaga ham ega bo'ladi;

– hayotdagi tushlar bir bor (ba'zan takrorlansa ham) ko'riladi. Ko'pchilikka oshkor etilmaydi. Badiiy tush asar tarkibida turg'un ko'rinish va o'rin egallaydi.

Hayotdagi va badiiy tushlar ta'birlanishida ham ma'lum farqlar mavjud. Hayotdagi tushlar ta'birida ikki muhim asos tayanch vazifasini bajaradi:

1. Tushda ko'rilgan narsa va predmetlarning xalq tasavvuridagi an'anaviy ramziy ma'nosiga tayaniladi.

2. Tush ko'ruvchining shaxsi, hayoti bilan bog'liq ko'rilgan timsollar individual talqin etiladi.

Har ikki holatda ham tush ko'ruvchi va ta'birchi – yo'riqchining ichki intuitsiyasi muhim rol o'ynaydi Ingliz adabiyotida meros qolgan ko'plab adabiy yodgorliklarda tush muhim o'rin tutadi. Xalq og'zaki ijodining durdonalari hisoblangan dostonlarda, ertaklarda, asotir va rivoyatlarda, maqol, topishmoq va qo'shiqlarda tush va tush bilan bog'liq ramzlarga duch kelamiz. Tush motivi barcha janri namunalarida uchrasa-da, uning ertak va dostonlardagi syujet tarkibi, kompozitsion qurilishidagi o'rni, badiiy-estetik vazifalari tadqiqi bu motivning an'anaviy tipik xarakterga ega bo'lganini, epik tur tarixiy asoslari, rivoji va poetikasida muhim o'rin tutganligi, noestetik hodisalarning folklorida estetik hodisaga rivojlanib borishi yo'lini aniqlashga katta imkoniyatlar beradi.

Nafaqat ingliz adabiyotida balki jahon miqyosida ertaklarda tush motivi, asosan, quyidagi badiiy-estetik vazifalarni bajaradi:

a) ertak ichida kelib, ertak syujetining o'zagini tashkil etadigan tush motivi. Bu tipdagi qahramon taqdirini avvaldan ramzlar vositasida belgilab beradi va xalqning tush – inson taqdiri to'g'risidagi sirli xabar ekanligi haqidagi tassavurlarini badiiy ifodalab keladi. Bundan tashqari, bu tip ertaklarda tushning dialektik birligi bo'lgan ta'birchilik madaniyati, tartib-qoidalari, irim bayoni, ta'birchi obrazining ishtiroki ham o'ziga xos;

b) ingliz folklorida tipik ta'birchi obrazi, asosan, tush motivi faol vazifa bajaradigan ertak va dostonlarda uchraydi. Ular ne-ne donolar ta'bir qilolmagan tush ramzlarini juda yaxshi bilishadi, ta'birning barcha qoidalariga amal qilishadi va yecha oladi. Bu obrazning

hayotdagi tarixiy asoslari bevosita mifologiya bilan bogʻlanadi. Psixanalitik tahlil tili bilan aytganda, ular ong osti kechinmalarini —oʻqiy oladigan kishilarning folklordagi obrazidir;

v) bu tip ertaklarning yana bir xususiyati shundaki, ularda baʼzan tushdagi hodisa, holatlar real voqealik bilan uygʻunlashib ketadi. Ingliz ertaklari, dostonlari namunalarida tush motivi ikki yoki undan ortiq turlicha mazmunlarda kelishi mumkin. Tabiiyki, tush mazmuniga qarab uning taʼbiri ham ertak matnida voqe boʻlishi ham turlicha kechadi;

g) tush motivi bilan boshlanadigan yana bir tip ertaklarda bu motiv syujetning barcha halqalarini tutib turmaydi, ulardagi tush motivi boshqa bir xabar bilan almashtirilsa ham, umumiy syujetga putur yetmaydi. Shuningdek, ularda anʼanaviy taʼbirchi obrazi ham ishtirok etmaydi. Ertak syujetining maʼlum bir halqalarini bogʻlovchi tush motivlari. Bu tip ertaklarda tush motivi ertak voqealari bayoni rivojida yoki soʻngida keladi. Ularda tush quyidagi vazifalarni bajaradi:

a) qahramon tushiga kirgan biror bir gʻayritabiiy kuch yoki homiy ruh uni xavf-xatardan ogoh qilib, qutulish choralarini oʻrgatadi. Uning tushiga kirganlar, odatda, mifologik obrazlar boʻladi;

b) ertak qahramoni tushiga kirgan shaxs yoki bashoratchi soʻzi bilan safarga oʻtlanadi. Bu tip ertaklarda tush motivining vazifasi ana shu bilan tugaydi;

v) ertak syujetining maʼlum bir halqasida roʻy berajak hodisa qahramonga tushida ayon boʻladi;

g) qahramon oʻz boshidan kechirganlarini tushi sifatida bayon etadi. Bunda tush motivi bevosita shart motivi bilan aloqador boʻladi.

Ingliz xalq ogʻzaki ijodidagi ertaklarning kompozitsion tuzilishiga koʻra tush motivi ertak avvali, voqealar rivoji va yakunida kelib, sinov, safar, uylanish, homiy ruh, xatar, oʻlim motivlari bilan yaqin munosabatda boʻladi. Bu munosabat darajasi turlicha boʻlib, tush – sinov, tush – safar, tush – uylanish motivlari bogʻliqligi koʻp uchraydi. Bunda tushlar asar qahramonlarini oʻtmishi bilan bogʻlaydi, yoki kelajakda sodir boʻladigan voqea hodisalardan ogoh etadi. Sodir boʻlgan hodisa asosan oʻtmishdagi oxush voqealar boʻlib, ular qahramonni xotirasidan oʻchib ketgan dek tuyuladi. Ingliz adabiyotida ertak va asarlar syujeti hamda kompozitsiyasida asosiy oʻrin tutadi.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:

1. Куронов Д. Адабиёт назарияси асослари. – Тошкент, 2018. Халлиева Г. Қиёсий адабиётшунослик. – Тошкент: Академнашр, 2020.
2. Ibratli tush // Luqmoni Hakim / Aytuvchi Nurali Nurmat oʻgʻli. Nashrga tayyorlovchilar T. Mirzayev va Z. Husainova. – Toshkent: Adabiyot va sanʼat, 1990. – B. 174 – 176.
3. Qarang: Oʻzbek xalq ertaklari. Ikki jildlik / Tuzuvchilar M. I. Afzalov, H. Rasulov, Z. Husainova. – Toshkent: Adabiyot va sanʼat, 1995.
4. Долгов К.М. От Киркегора до Камю. – М.: Искусство, 1990. Самосознание Европейской культуры XX века. Сборник. – М.: Политическая литература, 1991
5. Zaripova, D. (2023). KHOJANAZAR HUVAIDO IS A MAJOR REPRESENTATIVE OF UZBEK CLASSICAL LITERATURE. Science and innovation, 2(B1), 124-126.